



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3644
2025 - yil 07 - Iyul

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI
BOSHQARISH AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG'I**

**Davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning ko'chmas
mulk obyektlarini O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat
palatasi hududiy bo'linmalarining onlayn-
buyurtmanomasiga asosan to'g'ridan-to'g'ri elektron
onlayn-auksion savdolariga chiqarish tartibi to'g'risidagi
nizomni tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son
“2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq
buyuraman:

1. Davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning ko'chmas mulk obyektlarini
O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi hududiy bo'linmalarining onlayn-
buyurtmanomasiga asosan to'g'ridan-to'g'ri elektron onlayn-auksion savdolariga
chiqarish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi bilan
kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor
2025-yil 17-iyun
01/07-14/43-son



ORTIKOV AKMALXON
JURAXONOVICH

Kelishildi:

Rais
2025-yil 17-iyun



VAXABOV DAVRON
ABDUJALALOVICH

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
direktorining 2025-yil 17-iyundagi 01/07-14/43-son buyrug'iga

ILOVA

**Davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning ko'chmas mulk
obyektlarini O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi
hududiy bo'linmalarining onlayn-buyurtmanomasiga asosan
to'g'ridan-to'g'ri elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish
tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

Mazkur Nizom davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning ko'chmas mulk obyektlarini O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi hududiy bo'linmalarining onlayn-buyurtmanomasiga asosan to'g'ridan-to'g'ri elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining hududiy bo'linmalari (bundan buyon matnda hududiy bo'linmalar deb yuritiladi) – O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy boshqarmalari;

axborot tizimi – O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining (bundan buyon matnda Davlat aktivlari agentligi deb yuritiladi) “Davlat mulki” axborot tizimida joriy etilgan, onlayn-buyurtmanomalarni qabul qilish va ularni qayta ishlash maxsus moduli;

davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning ko'chmas mulk obyekti (bundan buyon matnda ko'chmas mulk obyekti deb yuritiladi) – balansda saqlovchilar va davlat ishtirokidagi korxonalarning belgilangan muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari, shuningdek uch oydan ortiq muddat davomida bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, shu jumladan umumiy maydonining 50 foizidan ko'prog'idan (bir bino yoki noturar joy xonasi konturi doirasida) tovarlar ishlab chiqarishda (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish)

foydalanilmayotgan obyektlar (mavsumiy tUSDagi faoliyat amalga oshiriladigan obyektlar bundan mustasno);

davlat ishtirokidagi korxona – ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi miqdori ellik foizdan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyati yoxud ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi miqdori xo‘jalik jamiyatining boshqa har bir aksiyadori (ishtirokchisi) ulushiga nisbatan ko‘p bo‘lgan xo‘jalik jamiyati;

onlayn-buyurtmanoma – hududiy bo‘linmalar tomonidan axborot tizimi orqali davlat va davlat ishtirokidagi korxonalar ko‘chmas mulk obyektlarini xususiy lashtirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri onlayn auksion savdolariga chiqarish bo‘yicha arizasi;

“E-auksion” elektron savdo platformasi (bundan buyon matnda elektron onlayn-auksion deb yuritiladi) – elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish uchun zarur axborotni kiritish, saqlash va qayta ishlash, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning bunday auksion va tanlovlar jarayoniga kirish hamda ularda qatnashish imkonini ta‘minlaydigan axborot tizimi;

balansda saqllovchi – sotilayotgan davlat ko‘chmas mulk obyekti biriktirilgan yuridik shaxs.

2. Ko‘chmas mulk obyektlari hududiy bo‘linmalarining onlayn-buyurtmanomasiga asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 18-son qarori bilan tasdiqlangan “E-auksion” elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomda belgilangan tartibda elektron onlayn-auksion savdolariga chiqariladi.

Bunda, onlayn-buyurtmanoma hududiy bo‘linmalar tomonidan axborot tizimi orqali beriladi.

3. Ko‘chmas mulk obyektlarini hududiy bo‘linmalarining onlayn-buyurtmanomalariga asosan elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish ushbu Nizomning ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Davlat ko‘chmas mulk obyektlarini sotish shartlari, agar qonunchilik hujjatlarida yoki Davlat aktivlarini xususiy lashtirish va xususiy lashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha davlat komissiyasining qarorlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, Davlat aktivlari agentligi yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan belgilanadi.

Davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli ko‘chmas mulk obyektlarini sotish shartlari davlat ishtirokidagi korxonalarning boshqaruv organlari tomonidan belgilanadi.

2-bob. Onlayn-buyurtmanoma berish va uni ko'rib chiqish

5. Hududiy bo'linmalar hududlarda aniqlangan ko'chmas mulk obyektlarini elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish uchun Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalariga axborot tizimi orqali onlayn-buyurtmanoma yuboradi.

Bunda, onlayn-buyurtmanoma axborot tizimi orqali hududiy bo'linmalar rahbarlarining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

6. Hududiy bo'linmalarining onlayn-buyurtmanomasida ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar ilova qilinadi:

ko'chmas mulk obyektining to'liq manzili hamda balansda saqllovchisi (mulkdori) to'g'risidagi ma'lumotlar;

ko'chmas mulk obyektining fotosuratlar va aniq geolokatsiyasi;

ko'chmas mulk obyektidan kelgusida samarali foydalanish bo'yicha taklif, agar mavjud bo'lsa. Bunda, tegishli hudud va (yoki) ko'chmas mulk obyektining ixtisoslashuvidan kelib chiqib, aynan qaysi yo'nalishlar uchun elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish bo'yicha hududiy bo'linmaning taklifi ko'rsatiladi.

7. Hududiy bo'linmalarining onlayn-buyurtmanomasi axborot tizimi orqali Davlat aktivlari agentligining tegishli hududiy boshqarmalariga avtomatik ravishda kelib tushadi.

8. Onlayn-buyurtmanoma kelib tushgandan so'ng, uch ish kuni ichida Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalari mas'ul xodimlari tomonidan ko'chmas mulk obyekti joyiga chiqqan holda ko'zdan kechiriladi hamda quyidagilar o'rganiladi:

ko'chmas mulk obyektining balansda saqllovchi yoki davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli ekanligi hamda bo'sh turganligi;

kadastr hujjatlariga muvofiq ko'chmas mulk obyektining umumiy yer maydoni va bino-inshootlar egallagan maydoni;

ko'chmas mulk obyektining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlangan hududlarni rivojlantirish dasturida (tarmoq jadvalida) mavjud yoki mavjud emasligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Davlat aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish davlat komissiyasi va Davlat aktivlari agentligining ko'chmas mulk obyektidan kelgusida foydalanish bo'yicha qarori mavjud yoki mavjud emasligi;

ko'chmas mulk obyekti xususiylashtirilmaydigan obyektlar toifasiga kirishi yoki kirmasligi;

ko'chmas mulk obyektiga nisbatan taqiq (cheklov)ning mavjud yoki mavjud emasligi.

9. Davlat aktivlari agentligi hududiy boshqarmasining mas'ul xodimi o'rganish jarayonida balansda saqllovchi hamda davlat ishtirokidagi korxonalardan ko'chmas mulk obyekti to'g'risidagi ushbu Nizomning 8-bandida nazarda tutilgan ma'lumotlarni so'rab olishi mumkin.

Bunda, balansda saqllovchi hamda davlat ishtirokidagi korxonalar ko'chmas mulk obyekti to'g'risidagi ma'lumotlarni bir ish kuni ichida mas'ul xodimga taqdim etishi shart.

10. Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalari tomonidan onlayn-buyurtmanoma asosida taqdim etilgan davlat ko'chmas mulk obyektni elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish quyidagi hollarda rad etiladi:

obyekt davlat ko'chmas mulk obyekti hisoblanmasa yoki bo'sh turgan bo'lmasa;

davlat ko'chmas mulk obyekti hududlarni rivojlantirish dasturi (tarmoq jadvali)da mavjud bo'lsa;

davlat ko'chmas mulk obyekti xususiylashtirish dasturlariga kirgan yoki xususiylashtirilmaydigan obyektlar toifasiga kirgan bo'lsa;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Davlat aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish davlat komissiyasi va Davlat aktivlari agentligining davlat ko'chmas mulk obyektidan kelgusida foydalanish bo'yicha qarori mavjud bo'lsa;

davlat ko'chmas mulk obyektiga nisbatan taqiq (cheklov) mavjud bo'lsa.

Bunda, davlat ko'chmas mulk obyektni elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish rad etilgan kundan boshlab bir ish kuni ichida axborot tizimi orqali hududiy bo'linmalarga rad etish asoslari ko'rsatilgan holda xabar yuboriladi.

11. Davlat ko'chmas mulk obyektni elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarishni rad etish uchun ushbu Nizomning 10-bandida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lmaganda, Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalari bir ish kuni ichida hududiy bo'linmalarning onlayn-buyurtmanomasini elektron tizim orqali davlat ko'chmas mulk obyektni elektron onlayn-auksion savdolariga

chiqarish jarayoniga o'tkazadi hamda bu haqda balansda saqlovchi va hududiy bo'linmaga xabar beradi.

3-bob. Davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli ko'chmas mulk obyektni elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish

12. Davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli ko'chmas mulk obyektni elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarishni rad etish uchun ushbu Nizomning 10-bandida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lmaganda, o'rganish bo'yicha to'plangan ma'lumotlar va hujjatlar Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalari tomonidan bir ish kuni ichida davlat ishtirokidagi korxonalarga ko'chmas mulk obyektni elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish masalasini ko'rib chiqish uchun yuboriladi.

13. Davlat ishtirokidagi korxonalar o'n besh ish kuni ichida ko'chmas mulk obyektni elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish yoki chiqarishni rad etish masalasini tegishli boshqaruv organlarida ko'rib chiqadi va bu haqida Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalariga tegishli javob xati yuboradi.

14. Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalari davlat ishtirokidagi korxonalarning javob xatini olgan kundan boshlab bir ish kuni ichida bu haqida hududiy bo'linmalarga xabar beradi.

4-bob. Davlat ko'chmas mulk obyektni elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish

15. Onlayn-buyurtmanoma axborot tizimi orqali elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish jarayoniga o'tkazilganda, uch ish kuni ichida Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalari davlat ko'chmas mulk obyektni savdoga chiqarish to'g'risida tegishli buyruq qabul qiladi va davlat ko'chmas mulk obyektni to'g'ridan-to'g'ri elektron onlayn-auksionga chiqarish choralarini ko'radi.

16. Davlat ko'chmas mulk obyektni sotishga tayyorlash va savdoga chiqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktyabrdagi 279-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat ko'chmas mulk obyektlarini sotish tartibi to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

5-bob. Yakuniy qoida

17. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Davlat va davlat ishtirokidagi korxonalar ko'chmas mulk
obyektlarini O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat
palatasining hududiy bo'linmalari onlayn-
buyurtmanomasiga asosan to'g'ridan-to'g'ri elektron
onlayn-auksion savdolariga chiqarish tartibi to'g'risidagi
nizomga
ILOVA

**Davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning ko'chmas mulk obyektlarini
O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi hududiy bo'linmalarining
onlayn-buyurtmanomasiga asosan to'g'ridan-to'g'ri elektron onlayn-auksion
savdolariga chiqarish**

SXEMASI

Bosqichlar	Tadbirlar	Mas'ullar	Ijro muddati
1-bosqich	O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining hududiy bo'linmalari tomonidan hududlardagi ko'chmas mulk obyekti bo'yicha qisqacha ma'lumotlarni (<i>obyektning to'liq manzili, fotosuratlar, aniq geopozitsiyasi, obyektidan kelgusida samarali foydalanish bo'yicha taklifi</i>) O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarining boshqarish agentligining (bundan buyon matnda Davlat aktivlari agentligi deb yuritiladi) "Davlat mulki" axborot tizimiga kiritish va obyektni onlayn-auksion savdolariga chiqarish bo'yicha elektron buyurtmanomani yuborish.	Savdo-sanoat palatasining hududiy bo'linmalari	Doimiy
2-bosqich	Davlat aktivlari agentligining "Davlat mulki" axborot tizimiga kelib tushgan ko'chmas mulk obyekti bo'yicha ma'lumotlarni joyiga chiqqan holda o'rganish.	Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalari	Onlayn-buyurtmanoma kelib tushgandan so'ng, uch ish kuni ichida
3-bosqich	O'rganish natijalariga ko'ra: a) davlat ko'chmas mulk obyektni elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarishni rad etish asoslar mavjud bo'lganda, Savdo-sanoat palatasining hududiy bo'linmalariga Davlat aktivlari agentligining "Davlat mulki" axborot tizimi orqali asoslangan javob yuborish; b) davlat ko'chmas mulk obyektni onlayn-auksion savdolariga chiqarishni rad etish uchun sabablar bo'lmaganda davlat ko'chmas mulk obyektni elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish jarayoniga o'tkazadi hamda bu haqda balansda saqllovchiga xabar berish; v) davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli ko'chmas mulk obyektni o'rganish bo'yicha to'plangan ma'lumotlar va hujjatlar Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalari tomonidan bir ish kuni ichida davlat ishtirokidagi korxonalarning	Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalari	bir ish kuni ichida

	ko'chmas mulk obyektni elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish masalasini ko'rib chiqish uchun yuborish.		
4-bosqich	Davlat ishtirokidagi korxonalar: a) ko'chmas mulk obyektni elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish yoki chiqarmaslik masalasini tegishli boshqaruv organlarida ko'rib chiqish va bu to'g'risida Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalariga ma'lumot berish. b) ko'chmas mulk obyektni elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish to'g'risida tegishli boshqaruv organlari qarori qabul qilinganda, ushbu ko'chmas mulk obyektni belgilangan tartibda elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish.	Davlat ishtirokidagi korxonalar	15 (o'n besh) ish kuni ichida belgilangan muddatlarda
5-bosqich	Onlayn-buyurtmanoma Davlat aktivlari agentligining "Davlat mulki" axborot tizimi orqali elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish jarayonlariga o'tkazilganda davlat ko'chmas mulk obyektni sotish to'g'risida buyruq qabul qilish. Davlat ko'chmas mulk obyektni belgilangan tartibda elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish choralarini ko'rish.	Davlat aktivlari agentligi va uning hududiy boshqarmalari	3 (uch) ish kuni ichida belgilangan muddatlarda